



## REGISTON dan KO'KSARROY gacha

**Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiylar va kuch tuzilmalari xodimlarining jangovar yurishi bo'lib o'tdi.**

Islom Karimov xiyobonidan boshlangan yurish Ko'ksaroy maydonigacha davom etib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirga ulanib ketdi.

Unda viloyat hokimining o'rinbosarlari Rustam Qobilov, Husan To'xtayev, Markaziy harbiy okrug qo'mondoni o'rinbosari Qahramon Ochilov va boshqalar so'zga chiqib, harbiy vatanparvarlik oyligining ahamiyati, milliy armiyamiz salohiyatini oshirish, harbiylarni



ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida gapirdi.

Tadbirida harbiylarning saf va qo'l jangi bo'yicha sahnalashtirilgan chiqishlari namoyish etildi. Viloyat musiqali drama teatri ijodkorlarining badiiy chiqishlari tadbirga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Harbiy hamda boshqa kuch tuzilmalari qurol-aslahalari ko'rgazmasi tashkil

etildi. Yoshlar jangovar texnika va qurollar bilan yaqindan tanishib, harbiycha hayot, osoyishtaligimiz posbonlarining faoliyatiga oid qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldi.

- Tadbirga nevaralarimni olib keldim, - deydi oqdayolik 70 yoshli Chinoz Bahodirov. - Ular ham Vatanga nafi tegadigan, haqiqiy mard yigitlar bo'lib ulg'ayishini istayman. Harbiylarimiz uchun namuna bo'ladi.

## Dasturlar haqida nega ma'lumot berilmaydi?

### TUMAN VA SHAHAR HOKIMLIKLARI MAS'ULLARI VA MATBUOT KOTIBLARI E'TIBORIGA!

**Odatda yangi yil uchun rejalar avvalgi yil yakunida yoki yil boshida tuziladi. Har bir korxonaga yoki tashkilot yilni reja, maqsad bilan boshlaydi. Hatto oila, xonadonlarning ham yilga mo'ljallangan rejasi bo'ladi va yil avvalidan bu borada harakat boshlanadi.**

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, 2025-yilning dastlabki oyi yarmi ham ortda qolmoqda. Viloyatning bu yilga mo'ljallangan budjeti, soliq sohasidagi o'zgarishlar, investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha yillik rejalar haqida gazeta va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizda ma'lumotlar berdik. Ayrim yangi obyektlar, loyihalarni ham xabarlar berildi. Ammo...

Yangi chaqiriqda viloyat Kengashi deputatligiga saylangan deputatlarning biridan o'zi saylangan okrugda 2025-yilda qancha ishchi o'rni yaratilishi, qancha korxonalar ochilishi haqida so'ragandim, xabari yo'qligini aytdi. Deputat sifatida buni tuman hokimligidan so'rab, bilib olishi, o'z takliflarini bildirishi haqida aytgandim, bir necha kundan keyin suhbatlashganimda hokimlikdan bu haqda ma'lumot o'lmaganini bildirdi.

Balki deputatga ma'lumotni berishmagandir, lekin yil davomida qaysi hududda qanday ish, loyiha amalga oshirilishi haqida hokimlikda ma'lumot bo'ladi-ku? Hatto yilga oid davlat dasturi ham xalq bilan maslahatlashilgan holda ishlab chiqiladi, takliflar olinadi (ayni paytda "Atruf-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" bo'yicha davlat dasturi ham umumxalq muhokamasiga qo'yilgan).

Keyin o'zim ham qiziqib, tuman va shahar hokimliklari sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga qaradim. Birortasida 2025-yil rejalarini, dasturlari haqida ma'lumot berilmagan.

Na hudud rahbarining yoki sohalar mas'ullarining bu haqdagi ma'lumotlari bor.

Xo'sh, yil dasturi, belgilangan rejalaridan xalqni xabardor qilish, bundan keng ommani tanishtirishga nima xalaqat qiladi? Axir bu davlat siri emas-ku?

Tuman, shaharning qaysi hududida qanday qurilish ishlari amalga oshirilishi, nechta korxonaga ochilishi, qaysi mahalla yoki korxonada qancha ishchi o'rni yaratilishi, umuman, yil dasturi va rejalar haqida xalqqa ma'lumot berilsa, turli xil gap-so'zlar, murojaatlarga hojat qolmaydi-ku! Bundan xalq vakillari - deputatlar xabardor qilsa, dasturlar ular ishtirokida, fikrlari inobatga olinib ishlab chiqilsa, ijro hokimiyatining aholini o'z faoliyatidan xabardor qilishda qulay bo'lmaydimi?

Kezi kelganda bir fikrni ham aytib o'tish lozim, odatda hududiy dasturlar ishlab chiqilayotganda, tasdiqlanayotganda va ular ijrosi muhokama qilinayotganda mahalliy Kengashlar deputatlari ishtirok etadi. Bunday paytda ushbu jarayonlarga barcha darajadagi deputatlar jalb qilsa, ularning ham fikrlari tinglansa, yaxshi bo'lardi. Chunki endilikda aholi hudud bilan bog'liq masalalarda faqat hokimlik va ijro organlariga emas, vakillik organlariga, ya'ni deputatlar va senatorlarga ham murojaat qilmoqda. Demak, dasturlar ishlab chiqilayotganda deputatlar o'z saylovchilari manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrlarini ifodalab, hududga oid dastur va rejalariga takliflarini bildirishi mumkin.

Dastur va rejalarini xalqqa e'lon qilib borishning yana bir afzalligi, balki bu kimlargadir yoqmas, lekin haqiqat shuki, ular ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga, belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishiga yordam beradi.

F.TOSHEV.

### MUKOFOT MUBORAK!

Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra taqdirlanganlar orasida Samarqand harbiy sudining raisi **Axmedov Bahriddin Hoshimovich** ham bor. U «**Sodiq xizmatlari uchun**» medali bilan mukofotlandi.

## "Ayollar daftari"ning oltinchi bosqichi boshlandi

O'zgarishlar bor

Olti yildirki, mamlakatimizda og'ir ijtimoiy holatga tushib qolgan ayollar uchun mahallalarda "Ayollar daftari" shakllantirilib, ushbu ro'yxatga kiritilgan ayollarga yordam berib kelinmoqda. Bu yil ushbu ro'yxatni shakllantirish va amaliy yordam ko'rsatishda birmuncha yangiliklar borligi aytilmoqda. O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat kengashi raisi o'rinbosari Akbar Abdusaidov bilan shu haqda suhbatlashdik.



Bizning suhbat

- 2024-yil 10-dekabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati hamda "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarning daftarga kiritilishida qator o'zgarishlar bor.

Birinchiligi yilning 5-yanvaridan 30-yanvarigacha xonadonma-xonadon yurish orqali "mahalla yettilligi", sektor ishchi guruhlari bilan birgalikda anketa-so'rovnoma asosida xotin-qizlarning barcha yo'nalishdagi muammolari o'rganiladi. Ilgari bu ish turli tashkilotlardan tarkib topgan vakillardan iborat maxsus ishchi guruh tomonidan o'rganilardi. 30-yanvardan 15-fevralgacha "mahalla yettilligi" tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy himoyaga muhtojlik darajasi, ya'ni toifasi aniqlanib, "Ayollar daftari"ning 6-bosqichiga kiritiladigan xotin-qizlar ro'yxatlarini shakllantiriladi. Ro'yxat tuzilgandan so'ng "mahalla yettilligi" tomonidan har bir ayolning individual dasturlari ishlab chiqiladi hamda sektor rahbariga taqdim etiladi.

**- Demak, ushbu dasturlarni amalga oshirish mahallalarning o'zida hal etiladimi?**

- Yo'q, sal boshqacharoq. 15-fevraldan 25-fevralgacha sektor rahbarlari hamda oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i barcha mahallalardan ro'yxat va individual dasturlarni olib, ijro uchun mas'ul bo'lgan tuman (shahar) tashkilotlari rahbarlarini yig'adi va individual dasturlar bilan tanishtirib chiqadi.

Tuman (shahar) tashkilotlari rahbarlari esa individual dastur bilan tanishib chiqib, imzo qo'yib, tasdiqlab beradi. Agar mas'ullarda dasturda belgilangan "amaliy yordam" bo'yicha e'tiroz bo'lsa, shu joyning o'zida to'g'rilab, keyin tasdiqlashadi. Individual dasturlar sektorlar va mas'ul tashkilotlar rahbarlari tomonidan imzolanganidan keyin uning asl nusxasi "mahalla yettilligi" ga qaytarib beriladi.

**- Yordam masalasida o'zgarishlar bo'lishi mumkinmi? Bu ko'mak nimadan iboratligidan ro'yxatga kiritilgan ayollar ham xabardor etiladimi?**

- Albatta. "Mahalla yettilligi" "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga qaysi tashkilot qachon, qancha miqdorda yordam berishini tushuntirib, rozi bo'lsalargina individual dasturlarning asl nusxasiga imzo qo'ydiradi.

Agar biror bir ehtiyojmand ayolda individual dasturda belgilangan "amaliy yordam"ga nisbatan asoslangan e'tirozi bo'lsa, individual dastur qayta ishlanadi va mas'ul rahbar tasdiqlab berganidan keyin ehtiyojmand ayolning imzosi olinadi.

Individual dasturlar sektorlar rahbarlari, ijro uchun mas'ul tashkilotlar rahbarlari va ehtiyojmand ayollar tomonidan imzolanganidan keyingina "mahalla yettilligi"ning kollektial qarori bilan tasdiqlanadi.

Shu jumladan, individual dasturga o'zgartirish kiritish masalasi ham "mahalla yettilligi"ning

kollektial qarori bilan amalga oshiriladi.

Individual dasturlar "mahalla yettilligi" tomonidan yuritiladi va mahalla idoralarida saqlanadi. Sektor rahbarlari hamda oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i individual dasturlar asosida "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Sektorlar rahbarlari, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari hamda "Mahalla yettilligi" a'zolari "Ayollar daftari"ga kiritiladigan xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirishda ma'lumotlarning haqqoniyligi bo'yicha shaxsan javobgar hisoblanadi. Bu masala "Ayollar daftari" nizomida qat'iy belgilab qo'yilgan.

**- Amaliy yordam berilishi qachondan boshlanadi?**

- Barcha hujjatlar tasdiqlanganidan keyin mart oyidan boshlab, noyabr oyigacha ehtiyojmand ayollarga ularning individual dasturlari asosida tegishli tashkilotlar tomonidan amaliy yordam berib boriladi.

Shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratish lozim: amaliy yordam berishda, jumladan, mablag'larni sarf etish bilan bog'liq ko'p masalalarda "mahalla yettilligi" tavsiyasi, xulosasi yoki qarori kerak bo'ladi.

Bu davrda, ya'ni mart-noyabr oylari davomida sektorlar rahbarlari har oy yakunida amalga oshirilgan ishlarni tegishli tashkilotlar rahbarlari va "mahalla yettilligi" bilan birgalikda tahlil qilib boradi, muammolar vujudga kelgan bo'lsa, ularni bartaraf etish choralari ko'radi.

Bundan tashqari, sektorlar rahbarlari, oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari va mas'ul tashkilotlar rahbarlari individual dasturlarda belgilangan chora-tadbirlar ijrosi va uning haqqoniyligi bo'yicha har chorak yakunida tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga axborot beradi.

"Ayollar daftari" tizimi doirasida nizom talablari asosida amalga oshirilayotgan ishlar quyidagi tartibda muvofiqlashtirib boriladi. Mahalla darajasida — tuman (shahar) sektorlari rahbarlari, oila va xotin-qizlar bo'limlari hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan muvofiqlashtiriladi. Tuman (shahar) darajasida — viloyat sektorlari rahbarlari, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining hududiy kengashlari, oila va xotin-qizlar boshqarmalari, O'zbekiston mahallalari uyushmasining hududiy boshqarmalari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

**- Ilgari "Ayollar daftari"ga faqat yil boshida o'tkazilgan xatlovda ro'yxatga olinganlarga kiritiladi. Bu yil ham shu tartibda amalga qoldimi?**

- Yo'q, bu yil yilning turli paytida to'satdan yuz bergan vaziyatlar natijasida qiyin ahvolda tushgan ayollar ushbu ro'yxatga kiritilib, ularga tegishli yordam berilishi mumkin. Bunda ular o'z mahallasiga murojaat qilishi lozim bo'ladi. Shundan so'ng ularga ushbu daftarda ko'zda tutilgan yordam ajratilishi mumkin.

**Gulruh MO'MINOVA suhbatlashdi.**





## TANKCHI DRONLARDAN HIMOYALANISH USULINI O'YLAB TOPDI

**Harbiylik nima – kasb yoki burch? Harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarga nisbatan "Vatan, el oldidagi burchini ado etmoqda", deya ta'rif beramiz. Lekin shuning ichida yashayotgan, yur osoyishtaligi uchun o'z halovatidan kechgan, yoinki hayotini tikkanlarni qanday ataymiz? Ularni harakatlantiruvchi kuch qayerdan keladi? Bu haqda o'ylab ko'rganmisiz?**

Markaziy harbiy okrugga qarashli harbiy qismlardan birida xizmat olib borayotgan Ilyos Hamidov bilan suhbatdan so'ng xayolimni shunga o'xshash savollar chulg'ab oldi. Asli jizzaxlik bu inson harbiylik libosini kiyishdan oldin nufuzli universitetlardan birini tamomlagan. Shunga qaramay, qo'lidagi diplomni qurolg'a, issiq ish o'rnini tankka almashtirgan.

— Men harbiylikni kasb emas, hayot tarzi deb bilaman, - deydi Ilyos Hamidov. — To'g'ri, taqdir taqozosi bilan boshqa mutaxassislik bo'yicha o'q'idim, ishlab ham ko'rdim. Lekin inson o'z orzusi, maqsadiga erishganidagina baxtli bo'larkan. Harbiylikni chiroyli libos yoki yuqori maosh uchun tanlamaganman. Xalqimni, yaqinlarim, oilamni himoya qilish hayot tarzini bo'lishini istaganman.

Qahramonimiz ayni vaqtda harbiy qismning tankchilar batalonida 1-guruh tank komandiri. 8 yillik tajribasi asosida yosh harbiy xizmatchilarga ustozlik qilib, soha sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda.

— Bu davrda mo'ljalga oluvchi operatorlikdan tank komandiri darajasigacha yetdim, - deydi u. — Bunda menga ustozlik qilgan podpolkovnik Muhiddin Hoshimov, katta leytenant Eldor Hamidov, Muzaffar Alimboyevlarning xizmatlari katta. Endi men ham "ustoz-shogird" an'anasini davom ettiryapman. Shogirdlarim orasida men kabi tank komandiri darajasiga yetib, maxsus operatsiya kuchlariga jalb qilingan, nufuzli tanlov va musobaqalarda g'olib bo'lganlari talaygina. Eng asosiysi, ular ham harbiylikni qalb amri bilan tanlagan.

Aslida har qanday sohaning rivojida o'z kasbini sevuvchi ana shunday insonlarning zahmatli mehnati yotadi. Xususan, Ilyos Hamidov ham tankchilik yo'nalishida o'ziga xos tajriba maktabini yaratish harakatida. Suhbatimiz davomida u tank yordamida uchuvchi qurilmalardan himoyalani usulini o'ylab topganligini, uni takomillashtirish ustida ishlayotganini ma'lum qildi.

Asqar BAROTOV.

## VATANPARVARLIKNING ASL KO'RINISHI

**Bayram tadbiridamiz. Odamlar shovqini ortidan sahnadagi boshlovchining ovozi eshitilmayapti. Shu vaqt sal olisroqda marsh boshlagan harbiy orkestr sadosi eshitildi. Odamlar birin-ketin shu tomonga burila boshladi. Sukunat cho'ndi. Yosh bolalar kattalarning yelkalariga mindirildi va ularning qo'llaridagi bayroqchalar hilpiray boshladi. Bu vatanparvarlikning asl ko'rinishi edi. Yuzlab insonda ayni hisni uyg'otgan, ularni birlashtirgan kuch esa orkestr bo'ldi.**

— Harbiy orkestrning bu qudratini o'zim ham harbiy bo'lgach, anglab yetganman, - deydi Markaziy harbiy okrug Samarqand garnizoni ma'naviyat-ma'rifat markazi harbiy orkestri boshlig'i Abbas Xolmatov. — Farg'ona farzandiman. Bolalikdan san'atga oshufta bo'lib, ulg'aygach, O'zbekiston davlat konservatoriyasida o'q'idim. Oliy ta'limni tamomlashim bilan harbiy xizmatga chaqirildim. Ochig'i, harbiy bo'lish rejamda yo'q edi, shunday bo'lsa-da, haqiqiy harbiy hayotni his qilish uchun muddatli harbiy xizmatga hujjat topshirdim. Sohaga mu-

habbatim, aynan harbiy orkestrga mehrim shu davrda uyg'ondi.

Abbas Xolmatov harbiy xizmatdan so'ng Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining harbiy orkestrida xizmatni boshladi. Keyin ofitserlarni qayta tayyorlash kursini tamomlab, dastlab Chirchiq garnizoni, keyin Jizzax garnizoni harbiy orkestrini boshqardi.

— Samarqandda xizmat qilishning mas'uliyati o'zgacha ekan, - deydi u. - Hududda o'tkazilayotgan biror bayram yo tadbir yo'qki harbiy

orkestr taklif qilinmasa. Bu bizni o'z ustimizda ko'proq ishlab, repertuarimizni kengaytirishga undaydi. Hozir 20 nafarga yaqin san'atsevar, iste'dodli harbiy xizmatchilar jamoamizga a'zo. Ular bilan milliy kuylarimizni orkestr ijrosiga moslab, yangi chiqishlar tayyorlayapmiz.

Darhaqiqat, harbiy orkestr jamoasining musiqalarini tinglagan inson borki qaddini tik tutib, ko'ksi to'la g'urur bilan nafas oladi. U insonlarda harbiy vatanparvarlik, fidoyilik, mardlik tuyg'ularini uyg'otadi.

A.ORZIQULOV.

**Xalqimiz sizlar kabi mard va jasur harbiylarimiz timsolida Vatanni himoya qilishdek dunyodagi eng ulug' ishni sharaf bilan ado etib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli an'alarini munosib davom ettirib kelayotgan ona yurtimizning chinakam qalqonlarini ko'radi.**

Shavkat  
MIRZIYOYEV.

**O'quvchilar birvarakayiga ingliz tilida salom berdilar, keyin o'qituvchilar o'quvchilar bilan salomlashdi. Shu bilan mashg'ulot boshlanib ketdi. O'qituvchilar o'zaro va o'quvchilar bilan ham faqat ingliz tilida muloqot qildi. Ayrim o'quvchilar xato qilsa-da, o'qituvchilarning savollariga ingliz tilida javob berdi, o'z fikrlarini ham chet tilida ifodalashga harakat qildi.**

Ikki yildan buyon Toyloq tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida hindistonlik ingliz tili fani o'qituvchisi faoliyat ko'rsatayotgani tufayli chet tili mashg'ulotlari shu taxlit o'tiladi.

Yurtimizdagi umumta'lim maktablarida o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatish sifatini oshirish maqsadida chet mamlakatlardan mutaxassis jalb qilish amaliyoti yo'lga qo'yilganiga ko'p bo'lmadi. Keyingi yillarda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan xorijiy ta'lim tashkilotlari, elchixonalar, chet eldagi va mahalliy rekrutning tashkilotlari bilan hamkorlikda o'quvchilarga dars berish uchun xorijdan yuqori malakali o'qituvchilar jalb etilayotgani ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning chet tillarni mukammal o'rganish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Joriy o'quv yilida viloyatimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida 20 nafardan ortiq xorijlik mutaxassis o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular o'quvchilarga rus, ingliz va boshqa chet tillardan saboq bermoqda.

Sunitha Boshpa Hindistondan kelib, Toyloqdagi maktabda faoliyat ko'rsatayotgan xorijlik o'qituvchilardan biri.

— Men ilk bor 2023-yilda O'zbekiston Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi taklifi asosida yurtingizga, Toyloq tumanidagi 21-maktabga kelib, o'quvchilarga ingliz tilidan dars o'tganman, - deydi Sunitha Boshpa. — Oldimga qo'yilgan vazifa - o'quvchilarning ingliz tilida muloqot qilish madaniyati va qobiliyatlarini o'stirish, o'qituvchilarga ilg'or dars metodlarini o'rgatishdir. O'tgan o'quv yilida ushbu maktab jamoasi bilan, o'quvchilar bilan til topishib, hamkorlikda yaxshi ishladik. Shuning uchun bu yil ham ushbu maktabni tanlab, shu yerda ishlayapman. O'quvchilarga qo'shimcha darslar o'tib, ingliz tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam beryapman, darsliklardagi ayrim qiyin mavzularni o'qitishda chet tili fani o'qituvchilariga yordam beryapman. Ikki yillik faoliyatim, tajribamdan kelib chiqib, aytishim mumkinki, 21-maktab o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga qiziqishi juda yuqori, deyarli har bir o'quvchida bu tilda gapirish qobiliyati rivojlangan. Har bir darsni yaxshi o'zlashtirishga

**Ingliz tilini hindistonlik o'qituvchi o'rgatyapti**  
O'qituvchi sinfga o'zi kirmadi, yonida xorijlik mutaxassis ham bor edi

harakat qilishadi, intilishlari yuqori. Bizda - Hindistondagi maktablarda ingliz tili ikkinchi, asosiy til sifatida o'qitiladi va o'quvchilar tabiiy va boshqa fanlarni ham ingliz tilida o'rganadi. O'zbekistonda esa ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitilsa ham o'quvchilarning deyarli barchasi ingliz tilini o'rganishga harakat qiladi. Bu tilda bemaol so'zlasha oladigan, fikrini bayon etadigan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil qilishi quvonarli. Chet tili o'qituvchilari ham o'z sohasining malakali mutaxassislari hisoblanadi, ular bilan birga ishlash men uchun zavqli.

xorijiy tilni o'rganish va gaplashishda qayerda xato qilayotganliklarini bilib olyapti va xatolarini tuzatayapti. Bundan tashqari, biz - chet tili o'qituvchilariga ham darslarni yangi, zamonaviy metodlar asosida o'tish, qiyin, murakkab mavzularni o'quvchilarga oson tushuntirish bo'yicha o'z tajribalarini o'rgatyapti. Bu nafaqat biz chet tili o'qituvchilari, balki boshqa fan o'qituvchilari uchun ham foydali bo'lmoqda. Birgalikda yangi metodlar bilan dars o'tishni yo'lga qo'yib oldik.

Maktab direktori Abdurasul Oripovning qayd etishicha, mazkur



Tuman markazidagi, ikki ming nafarga yaqin o'quvchi ta'lim oladigan maktabda 104 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatadi. Ularning 13 nafari milliy va xalqaro sertifikatga ega ingliz tili fani o'qituvchilardir.

— Sunitha xonim ikki yildan buyon maktabimizda ishlab, o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatib kelmoqda, - deydi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi Aziza Xo'jaaminova. — Biz bilan birga dars mashg'ulotlarini olib boradi, o'quvchilarning qo'shimcha mashg'ulotlari o'qituvchilarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini oshirishga yordam beryapti. O'quvchilar til tashuvchisi bilan emas, til egasi bilan muloqotda bo'lib, chet tilida so'zlashishni puxta o'zlashtiryapti. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishga tayyor-garlik ko'rish jarayonida Sunitha xonim bilan faol muloqotda bo'lib,

ta'lim muassasasi bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichi bo'yicha tumanda birinchi o'rinda turadi. O'tgan o'quv yilida 62 nafar bitiruvchining 45 nafari test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan. Shuningdek, nodavlat oliy o'quv yurtlariga kirgan o'quvchilar ham ko'pchilik ekan. Ayni paytda esa 20 nafardan ortiq o'quvchi ingliz tili bo'yicha xalqaro sertifikatni qo'lga kiritgan.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda viloyatning Bulung'ur, Ishtixon, Paxtachi tumanlari, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridagi maktablarda ham xorijlik o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular turarjoy bilan ta'minlangan va boshqa zarur sharoitlar yaratib berilgan.

G'.HASANOV,  
A.ISROILOV (surat).

## "Tinchlik uchun kurashmoq – sharaf"

**Bolaligimda dadam Jizzax shahriga sayohatga olib borgandi. Shahardagi oliy harbiy qo'mondonlik bilim yurti yaqinida joylashgan oshxonalarining birida ovqatlandik. Yonginamizda bir guruh harbiylar ham tushlik qilayotgandi. Ular orasida kiyimi o'ziga yarashgan bir ayol ham borligi e'tiborimni tortdi. Havas qildim. Uyga qaytayotib, dadamga harbiy bo'lish istagi paydo bo'lganini aytganman.**



Katta bo'ldim. Orzuimni amalga oshirishga harakat qildim. O'sha paytlar qizlarning harbiy bo'lishi u yuqda tursin, uyidan uzoqroqdagi texnikum yoki institutda o'qishi amirmahol edi. Ammo dadam meni qo'llab-quvvatladi.

Bugun harbiy xizmatchiman. Turmush o'rtog'im shu sohadan pensiyaga chiqqan. O'g'lim ham izimizdan boryapti. Tinchlikni asrash, Vatanni himoya qilish oliy burch ekanligini oilaviy his qilamiz.

Keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi harbiylar orasida ham ayollar safi kenga-

yib boryapti. Vatanni himoya qilishda ular erkaklardan qolishmaydi. Ayol kishi uchun harbiy bo'lish osonmas, ammo faxrli. Ayniqsa, dala o'quv-mashg'ulotlarida qatnashish o'zgacha zavq bag'ishlaydi.

Shunday vaziyatlar bo'lganki, yosh farzandlarimni uyda yolg'iz qoldirishga to'g'ri kelgan. Yaqin qarindoshlarimizning to'y-ma'rakalarida qatnasholmasdik. Chunki Vatan osoyishtaligi uchun har narsadan, hatto jondan voz kechib xizmat qilish – sharaf.

Xolida XUDOYBERDIYEVA,  
kichik serjant.





Sergey Yeseninning kommunistik dohiysi Vladimir Lenin haqidagi ushbu she'ri va dostonini o'qigan kishida "Shoirga dohiyning qaysi fazilati bunchalik ilhom berdi ekan, xudoni tan olmagan, tabiat qonunlariga qarshi chiqqan bu dahriylar nimasi bilan nozikta'b, xudojo'y shoirda mehr uyg'otdi ekan?", degan savollar paydo bo'ladi. Ushbu savollarni berar ekanman, "astag'firullo" deb qo'ydim va o'zimga o'zim aql bo'la boshladim. Axir o'zim ham yoshligimda "dohiy" g'oyalarni dunyodagi eng to'g'ri ta'limot deb o'yab, u haqida she'rlar yozib, yod olib yurar edik-ku! O'zim ham sho'rcho saltanatining oxirgi davrlarida xalq tortgan barcha musibat va mashaqqatlarni dohiy ta'limotidan chekinishning oqibatlarini, deb bilganman.

Shu ma'noda, populistik xayoliy g'oyalarning inson ongiga qanchalik tez kirib borishi va jamiyat uchun naqadar alamli natijalar keltirib chiqarishi ochiq ayon bo'ladi. Aytaylik, bolsheviklarning hayotdagi barcha muammolari bir urinishda bartaraf etish mumkinligi haqidagi safasatalari million-millionlab odamlarning ong-shuurini qamrab olganligi ayni haqiqat. "Yer dehqonlarga", "Zavod-fabrikalar ishchilarga", "Tinchlik, ozodlik, tenglik" singari quloqqa xush yoqadigan shiorlarni ko'tarib chiqqan rahnamolarga aholining ko'pchiligi tilla topgan tentakdek ergasha boshladi. Xudo yo'q, deb e'lon qilgan dahriylar "Yaratganning xatolari" ni tuzatishga kirishib ketdilar va yangi insonni yaratmoqchi bo'lishdi. Yesenin iborasi bilan aytganda: "Hali ochilmagan qit'a - yangi kommunistik dunyoni kashf etdilar" va ana shu yangi dunyoga darg'a bo'lishga intildilar. Darhaqiqat, avvaliga ularning ishlari ancha yurishib, qariyb yarim dunyoni zabt etishdi. Xitoydan tortib Lotin Amerikasigacha bo'lgan dunyoning nisbatan kam taraqqiy etgan qismida kommunistik g'oyalar keng yoyildi. Biroq XX asr oxiriga kelib, ushbu ta'limot muxlislari asta-sekin undan yaroqsiz mafkura sifatida voz kecha boshladi. Hatto kommunistik karvonboshi bo'lmish Rossiya-da ham hayot qadam-baqadam o'zining eski kapitalistik o'ziga qayta boshladi. Bu borada kommunistik Xitoy aql bilan ish yuritib, yangi tizimni yaratmaguncha, eskisini buzmay turibdi. Ammo ular buning uddasidan chiqadimi yo'qmi, hali vaqt ko'rsatadi.

Tabiat qonunlariga ko'ra, unda bo'sh joy bo'lmaydi. Jumladan, inson miyasi ham biror-bir yaroqsiz fikrdan xoli bo'lsa, uning o'rni darhol yangi xayollar, ko'p holda xomxayollar egallab olishi tayin. Kommunistik mafkura o'z o'rini kimdadir diniy-mistik aqidalarga, kimdadir millatchilik mafkurasiga, kimdadir liberal-demokratik ta'limotlarga, yana kimdadir shunchaki pul ishqiga bo'shatib berdi. Bular orasidagi eng yaramasi shovinistik millatchilik ekanligi keyinchalik ochiq ayon bo'lib qoldi. To'g'ri, bu mafkura bir paytlar Adolf Gitler davrida o'zining jirkanch qiyofasini namoyon etgandi. Ammo internatsionalizm ruhida tarbiya topgan sovet xalqi orasida ushbu illatning yana qaytadan jonlanishi ko'pchilik uchun kutilmagan hodisa bo'ldi. Undagi ayrim xalqlar o'zini mumtoz sanab, xudo yorlaqagan oriy millat ekanligi haqida safatsa sota boshladi. Soxta faylasuf Dugindan tortib millatchi Masovgacha bo'lgan keng spektrdagi bu shovozlar o'z millatlarini ulug'lab, o'zga xalqlarni yerga ura boshladi. Ortiqcha xromosomali alohida xalq haqidagi kulg'ili nazariya ham aynan shu asrimizda paydo bo'lganligi g'oyat ajablarnarli fenomen bo'ldi. Bu nazariyaning kulg'illigi shundaki, odamda bitta xromosoma ortiq yoki kam bo'lganida kalta-fahmlik kasalligi kelib chiqishi fan tomonidan allaqachon isbotlangan.

Shu o'rinda yana bir tabiat anomaliasi haqida esladim. Ma'lumki, ikki tana embrionda tutashib qolsa, Siam egizaklari paydo bo'ladi. Bu har ikki tana uchun ham fojiali bo'lib, ko'pincha ularni ajratishga to'g'ri keladi. Agar ajratishning iloji bo'lmasa, ular bir umr qiyналиb yashaydilar va birining o'limi ikkinchisini ham muqarrar halok etadi. Rossiya gerbiga e'tibor berib qarasangiz,



## yoxud bir asar tarixi

unda ham xuddi shu hodisani kuzatasiz. Undagi ikki boshli quz'g'un kishiga xuddi o'sha Siam egizaklarini eslatadi.

Haqiqatan ham, Oltin O'rda davlati tanazzulga yuz tutgach, XVI asrdan boshlab Moskoviya deya atalmish rus knyazligi kengayib, Rossiya deb qayta nomlandi. Yangi davlat barpo bo'lishi bilan qo'shnilar hisobiga tez kengaydi. O'rda batamom tugatilib, yangi harbiy yurishlar natijasida atrofdagi Qrim, Qozon, Ashtarxon va Sibir xonligiga o'xshash birlashmagan, nisbatan zaif davlatlar zabt etildi. Uzoq Sharq va Alyaska ham egallangach, ikki boshli quz'g'un och nazarini Turkistonga qarattidi va asta-sekin XIX asr oxirlariga kelib, zamonaviy qurollar kuchi bilan batamom egallandi. To'g'ri, keyinchalik tarixiy zarurat tufayli Alyaska, Polsha, Finlandiya, Bessarabiya singari mustamlaka hududlardan voz kechishga to'g'ri keldi. Biroq 1991-yilgacha imperiyaning asosiy qismi qo'lda saqlab turildi.

Shu yildagi avgust voqealaridan so'ng qizil imperiya halokatga yuz tutib, yana 14 ta sobiq kolonial respublikalar mustaqillikka erishdi. Bu Putin iborasi bilan aytganda, "XX asrning eng katta geosiyosiy halokati" bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, ushbu voqeani metropoliya juda og'rinib qabul qildi. Yaxshiyamki, o'sha paytda Rossiya zaiflashib, o'zi ham birovning yordamiga muhtoj bo'lib qolgan. Biroz vaqt o'tib, g'arb mamlakatlarining ko'magi bilan Moskva yana oyoqqa turib oldi. "Sovuq urush" g'alabasiga mahliyo bo'lgan kapitalistik dunyo Rossiya misolida o'ziga yangi ittifoqchi topgandek bo'ldi. Hatto g'arbdagi ayrim siyosatdonlar Lissabondan Vladivostokgacha cho'zilgan adolat saltanati haqida orzu qila boshladi. Ammo ular Rossiyadagi alamzadalik kayfiyatini hisobga olishmadi. Vaqt o'tishi bilan bu hududlarda mudrab yotgan millatchilik va buyukdavlatchilik batisallari yana qayta uyg'onib, jonlana boshladi. Eng yomoni, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ushbu mafkura keng targ'ibot darajasiga chiqib, rus xalqining katta qismini o'z ta'sir doirasiga oldi. Xalq kayfiyatidan kelib chiqqan rahbariyat ham asta-sekin liberal-demokratik yo'nalishdan chekinib, tobora avtokratik boshqaruv usuliga o'ta boshladi. Endi hukumatning o'zi buyukdavlatchilik siyosati targ'ibotini kuchaytirdi. Oqibat shu bo'ldiki, 2024-yil fevral oyida imperiya boy bergan hududlarini qayta tortib olish maqsadida Ukrainaga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Dastlab qisqa muddatga mo'ljallangan ushbu muhoroaba, mana ming kundan oshdiki, oxiri ko'rinmayapti.

Shubhasiz, bu urush bo'sh joyda paydo bo'lmadi. Zbignev Bzejinskiy, Genri Kissenjer, Aleksandr Soljenitsin singari katta fikr sohiblari Ukrainaning imperiya uchun ahamiyati o'ta muhim ekanligini bir necha bor

eslatib o'tgandilar. Keyingi yillarda bu yangi mustaqil respublikaning ayrim sohalarda Rossiyadan ham o'zib ketayotganligi, shubhasiz, Kremldagilarni tobora sergak tortirmoqda edi. Ayniqsa, Ukrainaning Yevropa tomonga qarab intilayotgani, Moskvadan tobora uzoqlashayotgani rus slavyanofillarining kayfiyatini buzdi. Ularning "uch-birxalq", ya'ni rus, belorus va ukrain ittifoqi haqidagi orzulari chilparchin bo'ldi. Ish chappa aylanib, Rossiya xalqaro maydonda tamoman yakkalanib qoldi. Dunyodagi bir necha avtokratik tizimda boshqarilayotgan davlatlarni hisobga olmaganda bugun hech kim Moskva bilan yaqin aloqa qilishni istamayapti. To'g'ri, Xitoy, Shimoliy Koreya, Eron, Suriya, Nikaragua, Venesuyela singari davlatlar unga hamdardlik qilib turishibdi. Ammo ular ham to'g'ri-risini aytish kerak: hamyonning oshnasi. Xitoyga Rossiyaning xomashyolari zarur bo'lsa, KXDR, Eron harbiy texnologiyalar, Suriya, Nikaragua va Venesuyela esa siyosiy madadga muhtoj. Qolgan bir qancha katta-kichik mamlakatlarda, shunchaki, Moskvaning siyosiy-harbiy vahimasi-dan cho'chiganlari bois murosayi madora qilishga majbur. Chunki Ukraina muhoroabasi ko'pgina kichik davlatlar uchun o'ziga xos saboq vazifasini o'tayapti. Dunyoning ikkinchi kuchli armiyasi bilan bo'layotgan tengsiz janglarda chinakam qahramonlik namunasini ko'rsatayotgan ukrain vatanparvarlarga tan bergan holda shuni qayd etib o'tish kerakki, Rossiyadek ham harbiy, ham iqtisodiy jihatdan qudratli davlat bilan tenglashish oson ish emas.

Garchand, Rossiyaning dunyo iqtisodiyotidagi ulushi unchalik katta bo'lmasa-da, uning bitmas-tuganmas tabiiy boyliklari olib borayotgan davomli urushni uzoq vaqt ta'minlashga qodir. Xalq farovonligini kamaytirish evaziga bo'lsa ham, Kreml endi boshlangan maxsus harbiy harakatlarni mantiqiy yakunigacha olib borishga mahkum. Shu bois yangi yilda harbiy xarajatlar uchun 13,5 trillion rubl ajratish kutilmoqda. Biroq urush qanday natija bilan tugashidan qat'i nazar, Moskva uchun g'alaba keltirmaydi. Aksincha, ham insoniy, ham iqtisodiy jihatdan ulkan yo'qotishlar davri sifatida rus tarixining qora sahifalarga kiritiladi. Bundoq olib qaraganda, Rossiya tarixini urushlar tarixi desa ham bo'ladi. Bu davlat bino bo'libdiki, son-sanoqsiz urushlar olib bergan va har gal urushlardan keyin siyosiy-iqtisodiy talotumlarni boshdan kechirgan. Shu ma'noda, Rossiya hamisha harbiy-millitaristik imperiya bo'lib kelgan. Imperator Aleksandr III ning iborasi bilan aytganda: "Rossiyaning ikkita ittifoqchisi bor, bular - armiya va flot". Bu iborani rus kommunistlarining rahbari o'ziga xos tarzda qayta talqin qildi: "Armiya bizning ikkinchi cherkovimiz, davlatimizning ibodatgohidir". Kommunistlar arabobining armiya haqidagi bu gaplari an-

chayin erish tuyulsa-da, u rus imperiyasi uchun armiyani ahamiyati nima ekanligini yorqin ifodalab bergan. Aynan shu sabablar tufayli rus xalqi va umuman, rossiyaliklar tinch va farovon yashash o'rniiga tevarak-atrofdagi qo'shnilar bilan davomli urush holatida bo'lib kelgan. Shu bilan birga, mustamlaka xalqlarni ham ushbu muhoroabalarga safarbar etgan.

XX asr oxirlarida qonli afg'on urushiga chek qo'yilishi ortidan Moldova, Chechenistonda, keyinroq Gruziya va Suriyada harbiy harakatlar amalga oshirildi. Ming-minglab askarlar hamda tinch aholi qurbon bo'lib ketdi. Hozir davom etayotgan Ukraina urushida esa qariyb millionga yaqin insonning yostig'i quridi. Yana bir necha millioni mayib-majruh bo'lib qoldi. Rossiya xalqi endigina tinch hayot lazzatini totayotgan bir paytda yana qonli urushlar girdobiga tortildi. O'tgan yil noyabr oyining oxirlarida Suriyadagi vaziyat yana keskinlashdi. Asadlar sulolasining zulmidan norozi bo'lgan xalq qayta bosh ko'tardi. Ukrainadagi urushdan shundoq ham sillasi quriyozgan Rossiya Bashar Asadga yordam berishdan bosh tortdi. Yaqin Sharqda egallangan marralar qo'ldan chiqdi. Suriyaning boy berilishi, arab mamlakatlaridan Yevropaga gaz va neft quvurlari uchun to'g'ri yo'l ochilishiga imkon yaratdi. Bu esa Rossiyaning G'arb mamlakatlaridagi yonilg'i bozorini kasod qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Moskvaning Yaqin Sharqqa tikilgan garovi nihoyatda yuqori. Shu ma'noda, bugun Rossiya uchun birdan bir imkoniyat - Ukraina urushini to'xtatib, tezroq murosayi madoraga kelish.

Ammo Putin Tramp hokimiyat tepasiga kelguncha o'zining bir qancha muammolarini hal qilib olishga tirishmoqda. Avvalo, iloji boricha Ukrainaning ko'proq hududlarini bosib olish, ikkinchidan, dushman armiyasini Kursk oblastidan haydab chiqarish. Kremlining bu rejalarini amalga oshadimi yo'qmi, bilmadik, ammo 2025-yil Rossiya uchun hal qiluvchi burilish yili bo'lishi tobora aniq ko'rinmoqda.

Maqolani Yeseninning mashhur "Zamin darg'asi" she'ri haqidagi gaplar bilan boshlagan edik. Haqiqatan ham ko'hna tarix sahifalarida Yer yuziga hukmron bo'lishni orzu qilgan ko'p jahongirlar haqida bitiklar saqlanib qolgan. Ularning har biri o'z zamonasida zaminga darg'alik qilishni xayol qilgan. Ammo ularning yarim dunyoni olgan qo'llari har gal bo'sh ketib, och ko'zlari bir hovuch tuproq bilan to'yg'an. Misolimizdagi zaminning so'nggi darg'asi - V.I.Leninni oladigan bo'lsak, marhumning ko'zlari hanuz ochiqligicha bir hovuch tuproqqa zor bo'lib yotibdi. Balki u o'z vasiyatiga binoan ona zaminga, onasining yoniga, ona tuproq bag'riga qo'yilsa, vatanida tinchlik qaror topib, fuqarolar yer yuzidagi boshqa milliard-millard odamlar singari tinch-osoysishta yasharmidi, deya o'ylanib qolasan kishi.

Taniqli rus shoiri Sergey Yesenin Batumi safari davridagi yillarni xotirlar ekan, L.Povitskiy (Yeseninning do'sti) quyidagilarni yozadi:

"Shunday bir kunlar bo'ldiki, Yesennini pulsizlik qiynab qo'ydi, unga yuz rubl juda ham zarur bo'lib qoldi. Shunda u "Bakinskiy pabochiy" gazetasi redaktori Chaginga 100 rubl yuborishini so'rab telegramma yo'lladi. O'sha paytda bu anchayin kattagina pul edi. Shoir buning evaziga Lenin haqida she'r yozib berajugani va da qildi. Ikki kundan keyin pochtaga borib, pulni oldik. Yesenin va'dasida turib, "Lenin" sarlavhali she'rini yozdi. Men unga she'r hali xom ekanligini, hozircha redaksiyaga jo'natmay turishi lozimligini aytdim. Ammo Yesenin she'r Lenin o'limining bir yilligi sanasida chop etilishi kerakligini aytib, fikrida turib oldi va uni Chaginga jo'natdi. Ammo negadir, she'r gazetada chiqmadi. Men ko'p yillardan so'ng Chagingan bu haqda so'raganimda, u she'r Yesenin darajasida bo'lmagani bois chop etilmaganini aytdi. Yesenin bu she'rini keyinchalik qayta ishlab, unga "Zamin darg'asi" (Erkin Vohidov tarjimasi) deya yangi sarlavha qo'ydi. She'r keyinchalik, shoirning o'limidan so'ng, 1926-yil 21-fevralda Tiflisda chiqadigan "Zarya Vostoka" gazetasida ilk marta bosilib chiqdi".

Xudoyberdi KOMILOV,  
siyosiy sharhlovchi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 06-233-91-56

### MINNATDORMAN!

Nafaqadaman, yoshim yetmishda. Yaqinda miokard infarkti o'tkazdim. Kerakli tashxislardan so'ng yuragimga stent qo'yish kerakligi ma'lum bo'ldi. Moddiy holatimdan kelib chiqib, yordam so'rab viloyat hokimligiga murojaat qildim. Ularning tavsiyasi bilan Respublika ixtisoslashgan kardiologiya ilmiy - amaliy markazi Samarqand viloyat mintaqaviy filialiga joylashdim. Jarrohlik amaliyotidan so'ng sog'ligim tiklandi.

Bu darddan forig' bo'lishimda mendan yordamini ayamagan viloyat hokimligi, shifoxona ma'muriyati, shifokorlar Farrux Jumaev va Fayzulla Ibragimovlar hamda shifoxonaning barcha xodimlaridan juda minnatdorman.

Sizlarga mustahkam sog'liq, mashaqqatli ammo sharafli kasbingizga omad tilayman. Ilohim qo'lingiz dard ko'rmasin.

**Ne'mat MUHAMMADOV,**  
Payari tumani.

### UMUMIY YIG'ILISHLAR O'TKAZILADI!

Past Darg'om tumanidagi "PAST DARG'OM MEVA-SABZAVOT" MCHJ dehqon bozori ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 20-yanvar kuni soat 10:00 da bo'lib o'tadi.

Yig'ilish qatnashchilari Past Darg'om tumani "Qatorerak" MFY hududida joylashgan jamiyat ma'muriy binosida soat 9:30 ga qadar ro'yxatdan o'tkaziladi.

**JAMIYAT MA'MURIYATI.**

Samarqand shahridagi "MARMAR BOZORI" MCHJ ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 20-yan-

var kuni soat 10:00 da bo'lib o'tadi.

Yig'ilish qatnashchilari Samarqand shahri Shohrux ko'chasi 33-uy manzilda joylashgan jamiyat ma'muriy binosida soat 9:30 ga qadar ro'yxatdan o'tkaziladi.

**JAMIYAT MA'MURIYATI.**

Past Darg'om tumanidagi "PAST DARG'OM BUYUM SAVDO" MCHJ savdo majmuasi ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 20-yanvar kuni soat 11:00 da bo'lib o'tadi.

Yig'ilish qatnashchilari Past Darg'om tumani "Yangibod" MFY hududida joylashgan jamiyat ma'muriy binosida soat 10:30 ga qadar ro'yxatdan o'tkaziladi.

**JAMIYAT MA'MURIYATI.**

Samarqand shahridagi "SAMARQAND SHODIYONASI" MCHJ ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 20-yanvar kuni soat 10:00 da bo'lib o'tadi.

Yig'ilish qatnashchilari Samarqand shahri 8-mart ko'chasi 8-uy manzilida joylashgan jamiyat ma'muriy binosida soat 9:30 ga qadar ro'yxatdan o'tkaziladi.

**JAMIYAT MA'MURIYATI.**

Narpay tumanidagi "MIRBOZOR BOZORI" MCHJ ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 18-yanvar kuni soat 12:00 da bo'lib o'tadi.

Yig'ilish qatnashchilari Narpay tumani Mirbozor qo'rg'oni "Salovot" MFY hududida joylashgan jamiyat ma'muriy binosida soat 11:30 ga qadar ro'yxatdan o'tkaziladi.

**JAMIYAT MA'MURIYATI.**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Saidov Abdusamexga (2024-yil 15-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Dahbed kochasi, 3-yo'lak, 3-uy.**

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasida marhum Abduraimov Xalimga (2024-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Gulyamov Ravshanga (2020-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Za-

rina Xisravovna notarial idorasida marhum Xaydarova Mubaroga (1999-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Sinyavina Galina Andreyevnaga (2018-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Muxtarov Baxodirga (2023-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Maxmatkulova Muxabbatga (2010-

yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Ziyadullayeva Fatimaga (2024-yil 1-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.**

**BEKOR QILINADI**  
Sotuvchi Baaladinov Xuseyin Osmanovich va sotib oluvchi Majitova Gulzar Abduraxmanovnalarning o'rtasida "Garaj, omborxon va yerto'lali omborxonasi binosi"ning 1-qavatidagi 4-raqamli xonasi (qurilish tagidagi maydoni 19,80 kv.m., ichki maydoni 15,04 kv.m.) uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2018-yil 27-iyunda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "Kooperativ" bog'dorchilik-uzumchilik shirkati a'zosi Xaydarov Rustamga tegishli maydoni 0,06 ga bo'lgan 102-ya uchastkasining kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



## Lotin yozuviga asoslangan

## ALIFBO

**TO'LIQ JORIY QILINISHI UCHUN  
ANIQ MUDDAT BERILGAN...**

Bu borada davlatimiz rahbarining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2021-yil 10-fevralda Vazirlar Mahkamasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Qarorning 21-bandida 2023-yil 1-yanvardan "Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha tashkilotlarda ish yuritish hujjatlari va boshqa hujjatlarni lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish amaliyotini to'liq joriy qilish" belgilangan. Viloyat prokuraturasi bilan hamkorlikda hukumat qarorining ijrosi o'rganilganda bir necha bor ogohlantirishlar va amaliy yordamlar ko'rsatilishiga qaramasdan idora va tashkilotlarda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ish yuritilishi hamon to'liq yo'lga qo'yilmaganligi aniqlandi.

Misol uchun, nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi (70 foiz), viloyat hokimligi hududidagi ko'p kvartirali uylarni joriy ta'mirlash davlat muassasasi injiniring kompaniyasi (73 foiz), viloyat qon quyish markazi (73 foiz), shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi viloyat hududiy boshqarmasi (74 foiz), Samarqand kattalar stomatologiyasi poliklinikasi (75 foiz), viloyat bozorlar va savdo tashkilotlar uyushmasi (76 foiz), shtat boshqarmasi (77 foiz), hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi (78 foiz), "Zarafshon" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (78 foiz), ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (78 foiz), qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (79 foiz)da yangi alifbodan foydalanish ko'rsatkichi pastligicha qolmoqda.

"Maroqand neft bazasi" AJ (54 foiz) va viloyat elektr tarmoqlari korxonasi (61 foiz)da esa ahvol bundan ham yomon.

Shu o'rinda yana bir gap. Viloyatdagi 30 ta idora va tashkilotda xodimlarni o'zbek adabiy til me'yorlari va davlat tilida ish yuritish kursida malaka oshirish choralari ko'rilgan.

Balki shuning uchun



idoralarda qo'llanilayotgan atamalarining adabiy til me'yorlariga muvofiqi o'rganilganda, Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va kosmetologiya tibbiyot markazi Samarqand filiali ish yurituvda rasmiylashtirilgan dalolatnomalarda terminlarning o'zbekcha muqobili bo'la turib, ruscha muqobili qo'llanilib kelinayotgani kuzatildi.

Bundan tashqari, davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tili-

ning amaldagi ilmiy qoidalari va me'yorlariga, xususan, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ga qat'iy amal qilinishi holatlari o'rganilganda ham bu borada qonun buzilishi holatlari borligi aniqlandi. Shuningdek, rasmiy ish yuritishga oid tayyor varaqalar, dorilarni hisobga olish jurnali shifokor ko'rsatmalari varag'i lotin alifbosida tayyorlangan bo'lsa-da, markaz xodimlari tomonidan kirill alifbosida va rus tilida to'ldirilmoqda.

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, "O'zbekiston pochta" AJ Samarqand filiali, Samarqand OITS markazi, viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi kabi 40 dan ortiq idora va tashkilotlarning ish yuritishga oid hujjatlari, ulardagi rahbarning munosabat belgisi (ustxat), moliyaviy qaydnomalar, kadrlarga oid hujjatlar, dalolatnomalar va boshqa hujjatlarda hanzu kirill alifbosidan foydalanilib kelinmoqda.

Vaholanki, bunday holat Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga zid hisoblanadi.

O'rganilgan barcha idora va tashkilotlarning statistika va moliyaviy hujjatlari rasmiylashtirilishida davlat tili bilan boshqa tillar, lotin va kirill alifbosini aralashtirib qo'llanilmoqda.

Viloyatdagi davlat boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ta'lim muassasalarida ish hujjatlarining yuritilishi, davlat tili haqidagi qonunchilikning aniq va bir xilda amal qilinishiga qaratilgan nazorat tadbirlari doimiy o'tkazib kelinayotgan bo'lsa-da, hanzu qonun buzilishi holatlari kuzatilib, davlat tiliga bo'lgan munosabat salbiyligicha qolmoqda.

Misol uchun, Toyloq tumani fermer, dehqon xo'jaliklari va to'morqa yer egalari kengashida 28 ta chiquvchi xat, 2 ta fuqaro murojatiga javob xati, 31 ta dehqon xo'jaliklari bilan tuzilgan shartnoma hamda barcha dalolatnomalar kirill alifbosida imloviy xatoliklar bilan rasmiylashtirilgan va ijroga qaratilgan. 5 nafar xodimdan birortasi davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi viloyat hududiy bo'linmasida malaka oshirmagan.

"Toza hudud" davlat unitar korxonasi Ishtixon tumani filialida holat bundanday yomon.

Korxonada xodimlari lotin alifbosida ish yuritishni umuman bilmaydi.

Qo'shrabot tumani gaz ta'minoti bo'limida targ'ibot vositalari panno va bannerlar hanzu lotin alifbosiga o'zgartirilmagan. Ish yuritish hujjatlari lotin va kirill alifbosida aralash holda, imlo xatolar bilan yuritilmoqda.

**Sherali TEMIROV,**  
viloyat hokimining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi.



Mulohaza uchun mavzu

Salohiyatli mutaxassis  
hamma joyda qadri

Yaqinda bir o'qituvchi bilan suhbatlashib qoldim. Gap orasida u:

- Talabalarim ichida darsimga umuman qiziqmaydiganlar bor, - dedi. - Ulardan nega bu kasbni tanlaganini so'rasam, kirish imtihon ballari past bo'lgani uchun shu yo'nalishga hujjat topshirganini aytdi. Aslida bu soha mutaxassisi bo'lmas emish.

Afsuski, talabalar ichida diplom bo'lsa bo'ldi, deb o'zi qiziqmaydigan yo'nalishga o'qishga kirganlar yo'q emas. Haliyam xususiy oliy ta'lim muassasasiga imtihonsiz o'qishga kiraypti.

Yaqin yillargacha aksar yoshlar qabul kunining oxirigacha kutib turar, so'ngra eng kam ariza topshirilgan yo'nalishga hujjatni topshirardi. Hatto qabulning yopilishiga sanoqli daqiqalar qolganida hujjat topshiradiganlar bo'lardi. Sababi ular kam hujjat qabul qilingan yo'nalishga o'qishga kirish osonroq deb tushunardi. Ammo ertaga kim bo'lishi, jamiyatga qanday manfaat tegishini o'ylamasdi.

Maqsad nima bo'lsa ham bir amallab o'qishga kirib olish, diplomli bo'lish. Yoshlarning ko'pchiligi diplom bo'lsa, ishli bo'lish oson deb hisoblaydi. Ammo ish beruvchilar diplom bor-u, ishli yo'q mutaxassisni ishga olishni xohlamaydi. Buni keyingi vaqtlarda rahbarlarning o'zidan ham eshityapmiz. Natijada qo'ldan ish kelmagan mutaxassis chet elga ish izlab ketishga majbur bo'ladi va bizda ish yo'q, degan xulosaga keladi.

Bir tanishim aytib qoldi,

o'g'lining o'rtog'i IT sohasida oliy ta'lim muassasasida o'qibdi, diplom olibdi. Endi esa o'z sohasida ishlanmasdan, koreys tilini o'rganayotganmish. Yigitning o'zi o'qigan kasbga qiziqishi yo'q, shuning uchun Janubiy Koreyaga ishga bormoqchi ekan.

Yana bir tanishimning aytishicha, oliy ta'lim muassasasida ingliz tili yo'nalishida o'qiyotgan qizining chet tili o'qituvchisi bo'lishga ishtiyogi yo'q emish. U asli dizaynerlik kasbiga qiziqqan, ota-onasi qizini qo'shimcha kontrakt asosida o'qishga kiritgan ekan.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Hozirgi yoshlar katta maoshga ishlashni istaydi, ammo o'zlari shunga yarasha yetuk mutaxassis bo'lishga intilmaydi, - deydi hamkasbim A.Haydarov. - Buni amaliyotga kelayotgan talabalar misolida ham aytish mumkin. Amaliyotga kelayotgan talabalarning ichida berilgan topshiriqlarni astoydil bajaradiganlari kam. Aksarining bahonasi ko'p. Bir amallab amaliyotni tugatib olsa bo'ldi. Ammo men bu yerdan nimadir o'rganishim kerak, ertaga o'zimga kerak bo'ladi, deb o'ylamaydi.

Haqiqatda ayrim yoshlar o'qish, izlanish va o'z ustida ishlashni uncha xushlamaydi. Chet tilini o'rganayotgan yoshlar bilan gaplashsangiz, aksari xorijda ishlash uchun til o'rganayotganini aytdi. Hatto chet elga o'qishga ketayotganlarning hammasi ham xorijda oxirigacha o'qimaydi. Ko'pchiligi o'qishga borgach, ishga chiqib ketadi. Ba'zilari ham o'qib, ham ishlaydi. To'g'ri, chet elda yashash oson emas, shuning uchun

yurtdoshlarimiz ishlashga majbur bo'ladi. Ammo ularning ko'pchiligi katta maoshi ish topgach, o'qishni davom ettirmaydi. Masalan, Janubiy Koreyaga o'qishga boradigan o'zbekistonlik yoshlarning 60 foizi o'qishni tashlab ketarkan. Shuning uchun Koreya hukumati chet eldan, ayniqsa, O'zbekiston, Mug'uliston, Vietnam kabi davlatlardan o'qishga keluvchi yoshlarga viza olishni qiyinlashtirib qo'ygan.

Oliy ta'limda 14 yil o'qim, davlat tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritdim, - deydi Samarqand davlat universitetining biokimyoinstituti organik sintez va bioorganik kimyo kafedrasiprofessori Xurshid Bozorov. - Ilmiy tadqiqot ishimning ancha yili Xitoyda o'tdi. Xorijda ham o'qish, ham ishlash oson bo'lmadi. Ba'zida ota-onamdan pul so'rashimga to'g'ri keldi. O'zbekistonga kelsam, yoshlarning ko'pchiligi o'qishdan ko'ra, pul topishga qiziqib ketibdi. Aslida inson o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi kerak. Shunda u kasbi ortidan hurmatga sazovor bo'ladi va oilasini boqishga yetarlicha pul topadi. Masalan, men hozir ham Xitoyga borsam, katta maoshi ishga olishadi. Ammo chet eldan ko'ra Vatanim taraqqiyotiga xizmat qilishni istayman. Professor sifatida hozirgi ish joyimda ham yaxshi maosh olaman. Yoshlarga bir narsani aytishni istayman. Pul topish emas, salohiyatli mutaxassis bo'lishga intilish kerak.

**XURSHIDA ERNAZAROVA.**

Qur'onni besh  
nuxxada ko'chirgan  
XATTOT

Samarqandda "Ginnesning rekordlar kitobi"ga kiritilishi mumkin bo'lgan besh nuxxada ko'chirilgan Qur'oni Karimning qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda.

Kur'onning mazkur nusxalarini ko'chirgan xattot Samarqand shahrining Navbahor mahallasida yashovchi, 83 yoshli Shavkat bobo Istamovdir. U 15 yil davomida muqaddas kitob nusxalarini ko'chirgan. Shundan keyin xattot "Ginnesning rekordlar kitobi" ma'lumotlari yig'iladigan tashkilot tomonidan yuborilgan bildirishnomani oladi. Ustozga uning ishlari e'tiborga olingani va dunyoda shunga o'xshash kitob bor-yo'qligi to'g'risida tekshirish ishlari olib borilayotgani ma'lum qilingan.

Xattotlik qadimiy, noyob va mas'uliyatli kasb, - deydi Shavkat bobo. - Bolaligimda otamning tarixiy qo'lyozmalarni ko'chirishga qiziqib, arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganaman. Kunlarning birida otam Bibixonim madrasasiga olib borib, Qur'on qo'yish uchun toshdan yasalgan qadimiy lavhni ko'rsatgandim. O'shanda bu lavh uchun albatta, kitob yozishni, Qur'on oyatlarini ko'chirishni dilimga tugib qo'ygandim. Allohga shukr, niyatimga yetdim - Toshkent politexnika institutida o'qim va talabalik yillarim poytaxtdagi Sharqshunoslik instituti qoshidagi xattotlik to'garagiga qatnashib, bu ilmi o'rgandim. Afsuski, u vaqtlarda xattotlik bilan shug'ullanishga ruxsat yo'q edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, an'analimiz qayta tiklanib, ijodning bu turiga qiziqish uyg'ondi va xattotlik yana rivojlandi. Xattotlikda



ko'chirgan ilk kitobim sharq adabiyoti klassiklarining she'riy asarlari aks etirilgan qo'lyozma kitoblardir. Mazkur kitoblardan Umar Xayyom, Rudakiy, Hofiz, Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy va boshqa so'z ustalarining asarlarini ko'chirdim. 1995-yildan boshlab islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimning nusxalarini ko'chirishga kirishdim va Qur'onni besh marta qayta ko'chirishga muvaffaq bo'ldim. 100 kilogramlik, bo'yi qariyb 2 metr bo'lgan Qur'onning qo'lyozma nusxasini Bibixonim madrasasidagi

Qur'on qo'yish uchun yasalgan qadimiy lavhga qo'ymoqchiman.

Shavkat bobo tomonidan Qur'onning qo'lda ko'chirilgan nusxalarining beba-holli shundaki, xattot qo'lyozmani xalqaro standart A4, A3, A2, A1, A0+4 formatlarida ko'chirgan. Ustoz o'z asarlarida arab yozuvining eng keng tarqalgan va qulay uslubini "Usmoniy"dan foydalangan. Qur'oni Karimning ilk ko'chirilgan nusxasi "Haftayki sharif" (qolgan nusxalar Qur'oni Karim nomi bilan atalgan) bo'lib, A4 formatda (297x210), 80 varaq, og'irligi 1 kilogramm. Ikkinchi nusxa - A3 formatda (297x420), 110 varaq, og'irligi 5 kilogramm. Uchinchi nusxa A2 formatda (594x420), 154 varaq, og'irligi 16 kilogramm. To'rtinchi nusxa - A1 formatda (594x841), 310 varaq, og'irligi 40 kilogramm. Beshinchi nusxa - A0+4 formatda (865x1500), 310 varaq, qalinligi 12 santimetr, og'irligi 100 kilogramm.

**SAMARQANDDA XATTOTLIK MAKTABI OCHILSA...**

Shavkat bobo 2018-yilda "Hikmatlar olami" I Respublika xattotlik festivalida ishtirok etib, "Qur'on xattotligi" nominat-

siyasi g'olibi bo'ldi. U kishi bilan suhbatlashar ekanmiz, Samarqandda xattotlik san'atini rivojlantirish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida fikrlarini bildirdi.

Hozir xattotlikni biladigan va shug'ullanadiganlari sanoqli, - deydi Shavkat bobo Istamov. - Chunki sohada mutaxassislar kamayib ketyapti. Tariximiz, qadriyatlarimiz va ota-bobalarimizdan meros qolgan qo'lyozma va toshbosma asarlarni kelajak avlodga o'z holicha yetkazish uchun, avvalo, xattotlik maktabi yoki bo'limini tashkil etish kerak. Jumladan, Samarqand xattotlik maktabida Ochilidimurod Miriy Kattaqo'rg'oni (1830-1899), Abduljabbor Urgutiy Samarqandiy (1885-1910) muhim o'rin tutgan. Lekin haligacha ularning nomi bilan ataluvchi xattotlik maktablari yo'q. To'g'ri, oliy ta'limda, jumladan, Sharqshunoslik institutida shunday yo'nalishlar bor. Lekin bu kamlik qiladi va yoshlarga bolaligidan xattotlik ilmi o'rgatilsa, ota-bobalarimiz va ularning asarlariga mehri oshadi, milliy merosimiz avlodlarga ham o'z holicha yetkaziladi.

**Fazliddin RO'ZIBOYEV.**

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 464 nusxada chop etildi. Buyurtma 16. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi:**

**F.RO'ZIBOYEV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda